

INGLIZ VA O`ZBEK ADABIYOTIDA GENDER TENGLIGI MASALALARI

Abdullayeva Nargiza Axmadjonovna

Namangan Davlat Universiteti Ingliz tili amaliy kursi kafedrası katta o`qituvchisi

[Tel:943967757](mailto:nargiza3967757@gmail.com). nargiza3967757@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada asosan ingliz va o`zbek adabiyotida ayollar obrazlari orqali jamiyatdagi gender tengligi masalalari qay darajada ochib berilganligi borasida fikrlar bayon etilgan. Muallif tomonidan berilgan ma`lumotlarning asosi sifatida ingliz adabiyoti vakili Margaret Mitchelning “Shamollarda qolgan hislarim” romani hamda o`zbek adabiyotining yorqin namoyondasi Abdulla Qahhorning “Sinchalak” qissasiga murojaat qilingan.*

**Kalit so`z va iboralar:** *Feminist adabiyot vakili, gender tenglik, vaqt tushunchasi, taziyya va zo`ravonlik, ayollarga hos hislatlar, ayollarning o`ziga bo`lgan ishonchi, tashqi muhit ta`siri.*

ISSUES OF GENDER EQUALITY IN ENGLISH AND UZBEK LITERATURE

Abdullayeva Nargiza Axmadjonovna

Namangan State University Chair of English practical course

senior teacher

[Tel:943967757](mailto:nargiza3967757@gmail.com). nargiza3967757@gmail.com

Annotation: *This article mainly deals with issues of gender equality in society through the images of women in English and Uzbek literature. As the basis*

of the information given by the author, it was referenced to the novel “Gone with the Wind” by American writer Margaret Mitchell and “Sinchalak” by brilliant Uzbek writer Abdulla Qahhor.

Key words: *Representative of Feminist literature, gender equality, the concept of time, freshness and violence, feelings of women, women's self-confidence, influence of the external environment.*

ВОПРОСЫ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА В АНГЛИЙСКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Абдуллаева Наргиза Ахмаджонова

Кафедра практический курс английского языка Наманганского
Государственного Университета старший преподаватель

[Tel:943967757. nargiza3967757@gmail.com](mailto:nargiza3967757@gmail.com)

Аннотация: *В этой статье в основном рассматриваются вопросы гендерного равенства в обществе через образы женщин в английской и узбекской литературе. В качестве основы информации, приведенной автором, была использована ссылка на роман “Унесенные ветром” американской писательницы Маргарет Митчел и “Синчалак” гениального узбекского писателя Абдуллы Каххора.*

Ключевые слова: *Представитель феминисткой литературы, гендерное равенство, концепция времени, преследование и насилие, женские чувства, женская уверенность в себе, влияние внешней среды.*

KIRISH.

Insoniyat paydo bo'lgandan boshlab jamiyatning turli jabhalarida gender tenglik mavzusi doimiy ravishda muhokamalar, tortishuvlar, munozaralarga sabab bo'lib kelgan. Ba'zi hollarda „gender“ tushunchasi "jins" tushunchasining sinonimi sifatida noto'g'ri ishlatiladi. Aslida, jins va gender o'rtasidagi farq asosiy hisoblanadi, chunki ayol va erkak o'rtasidagi ko'p farqlar biologik bo'lmagan sabablarga ham ega. Gender tushunchasi aqliy, madaniy va ijtimoiy farqlarga ta'sir qiladi va jins tushunchasi faqat jismoniy (anatomik va fiziologik) farqlarga ta'sir qiladi. [1] Yuqoriagi ta'rifdan ko'rinib turibdiki, gender tushunchasi har sohada bo'lgani kabi madaniyat va ijtimoiylik nuqtai nazaridan adabiyot olamida ham namoyon bo'ladi va gender tengligi masalalarini ko'rsatib beruvchi ijod mahsullari asrlar davomida maxalliy va xorijiy yozuvchilarning asarlarida o'z aksini topgan. Bu kabi asarlarda asosan yozuvchilar o'z davrining yetuk, kamolga erishgan, vatanparvar, dovyurak qaxramon ayollarini yoki mazlum xalq orasidagi ezilgan, mushtipar onalarni, zulimkor, qaxri qattiq boylar yoxud jamiyatning yuqori tabaqa vakillari tomonidan tazyiq ostiga olingan opa-singillarimizning hayot yo'li, boshidan kechirgan kechmishlarini bayon qilganlar. Xuddi shu yo'sunda, Amerikalik feminist yozuvchi Margaret Munnerlin Mitchel qalamiga mansub "Shamollarda qolgan hislarim" romanidagi bosh qahramon Skarlett O`Xara hamda o'zbek adabiyotining yorqin namoyondasi Abdulla Qahhor qalamiga mansub "Sinchalak" qissasi markazidan o`rin olgan Saida obrazlarini misol sifatida olishimiz mumkin. Bu ikki qahramon timsolida o'z davrining gender tengligi masalalari yozuvchilar tomonidan mohirlik bilan tasvirlab berilgan. Kitobxon asarlarni o`qir ekan, ayol zotining chidam va bardoshiga, har qanday jumboqli vaziyatlarda ham to`g`ri yechim topib, atrofida qilarga birinchilardan bo'lib yordam

berishga urinishi va o`rni kelganda boshqalarga o`zini xafa qildirib qo`ymasligiga yana bir bora amin bo`ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Yuqorida ta`kidlanganidek, gender tengligi masalasi borasida doimiy izlanishlar olib borilgan va bu jarayon tinimsiz davom etmoqda. Jumladan, gender tengligi bo`yicha Yevropa instituti tomonidan har yili o`tkaziladigan tadqiqotlar natijasi sifatida “Green Deal and Gender Equality” jurnali chop etib kelinadi. Yoki Helsinki universiteti professori Anne Mikkola tomonidan 2005 yil 27 dekabrda nashr qilingan “Role of Gender Equality in Development Literature” maqolasini hamda 2018 yil Mila Arizahning “Feminism: Equality gender in literature” nashrlarini bu boradagi natija sifatida ko`rsatish mumkin. O`zbek adabiyotida ham gender masalalari borasida Ashurova N.A tomonidan nashr qilingan “Gender munosabatlarini ifodalovchi ingliz frazeologiyasining rivojlanishi” maqolasini, Bahromova Munira Madaminovnaning “Ayol konseptosferasida gender munosabatlarining ifodalanishi”, Qambarova Gulmira Baxtiyorovnaning “Gender tenglik muammolari”, Bayjonov Furqat Baxramovichning “Gender madaniyati tushunchasini ijtimoiy hodisa sifatida o`ziga xos xususiyatlarini o`rganish” kabi maqolalarini amaliy qilingan ishlar sarasiga kiritishimiz mumkin. Qurbonova Shodiya Shixnazar qizining “O`zbek tili badiiy matnlarning gender xususiyatlari” mavzusidagi diplom ishi esa bu boradagi olib borilayotgan ilmiy ishlar sifatida misol bo`la oladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Ushbu maqolada asosan gender tengligi masalalarini ingliz va o`zbek adabiyoti namoyondalarining asarlarida ayollar obrazlari orqali ifodalanishi va

undagi bosh qahramonlar o'zlarining hayot yo'llarida uchragan muammolardan qay tarzda xalos bo'lganliklari, bu esa ayollar va erkaklar o'rtasidagi tengsizlikka bo'lgan kurashish azaldan ijtimoiy masalalardan biri ekanligi xususida fikrlar bayon etiladi. Har bir nazariya amaliyotda o'z aksini to'pganligi sababli, fikr mulohazalarni asosan ingliz adabiyotining yorqin vakilasi Margaret Mitchelning "Shamollarda qolgan hislarim" hamda o'zbek adibi Abdulla Qahhorning "Sinchalak" asarlari talqinida berishga xarakat qilindi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR.

Gender masalalari borasida fikr yuritar ekanmiz eng avvalida ushbu atamaga bir oz izoh berib o'tamiz. Gender so'zi inglizcha "gender"-jins, lotinchada esa "genus"-mehribon ma'nolarini anglatib, fiministik nazariya va gendershunoslikning rivojlanishi tufayli keng tarqaldi. Bu esa o'z navbatida gender tadqiqotlari va shu sohadagi masalalarni keng yoritish imkoniyatini bera boshladi. Gender tadqiqotlari - bu feministik harakatlar ta'sirida va ular bilan yaqin hamkorlikda shakllangan fanlararo o'rganish sohasi xisoblanadi. Bu soha adabiyot, til, geografiya, tarix, siyosatshunoslik, otsiologiya, antropologiya, kino nazariyasi, media, psixologiya, huquq va tibbiyot sohalarida gender va jinsiy aloqani o'rganadi. Shuningdek, uirq, etnik, sinf, millat va nogironlik toifalarining jins va jinsiylik toifalari bilan kesishishini ham o'zining o'rganish obyekti sifatida qaraydi.[2] Ko'rinib turibdiki, gender tengligi masalalari asosan barcha sohalarda bo'lgani kabi adabiyotda ham o'z aksini topadi yani biz asarlarni o'qir ekanmiz mualliflar erkaklar obrazlarini qaysidir darajada ayol qahramonlariga nisbatan xokisor, mazluma, mushtipar yoki ezilgan xalq vakili sifatida tasvirlaydilar. Ba'zan asarlarni tahlil qilish jarayonida feminist yozuvchilarning asarlarini o'rganib chiqilsa, xattoki o'zlari ayol bo'la turib, ular ham bosh qahramonlari tasvirida erkaklar kabi yondashadilar, buning natijasi asosan feminist yozuvchilar

o`zlarining boshlaridan kechirgan sarguzashtlarini bayon qiladilar va o`z-o`zidan avtobeografik asarlar yaratadilar. Ushbu maqolada yuqoridagi nazariy fikrlarimizning amaldagi isboti sifatida Amerikalik feminist yozuvchi Margaret Mitchel qalamiga mansub “Shamollarda qolgan hislarim” romanida hamda o`zbek adabiyotining yorqin namoyondasi Abdulla Qahhorning “Sinchalak” qissasida ayol obrazlari talqini va asosan gender tengligi masalalariga qay darajada yondashilganligi borasida misollarga murojaat qilamiz.

Amerikalik yozuvchi Margaret Munnerlin Mitchel 1900 yilda Amerikaning Jorjia shtati poytaxti Atlanta shaxrida tug`iladi. Yozuvchining hayot yo`liga nazar tashlaydigan bo`lsak, u jurnalist sifatida ko`plab insonlar bilan suhbat qilishni yoqtiradi va yoshligidan uning oila a`zolari ayniqsa onasi (U Atlantaning ilk ledilaridan biri bo`lib, turli xayriya jamiyatlarining a`zosi, ayollarning erkaklar bilan teng huquqli bo`lishi uchun kurashgan xotin-qizlar harakati-fiminizmning ilk tarafdorlaridan edi) unga turli hil xikoyalarni, asosan 1861 va 1865yillarda Amerika shimoliy burjuaziya hukmronligi ostida bo`lgan shtatlar bilan quldorlik xali xanuz davom etib kelayotgan janubiy shtatlar o`rtasidagi fuqorolik urushi voqealarini hikoya qilib berar edilar. Shuning ta`siri o`laroq Mitchel keyinchalik shu urushda qatnashgan veteranlar bilan topishib ular bilan uzoq qiziqarli suhbatlar quradi va 1936 yilda uning “Gone with the Wind” ya`ni o`zbek tiliga “Shamollarda qolgan hislarim” den talqin qilingan asari dunyo yuzini ko`radi. Bu asar Amerika adabiyotining eng mashhur va bestseler kitoblaridan biri hisoblanadi. Yozuvchi ushbu asari uchun 1937 yilda “Pulitser” mukofoti bilan taqdirlangan.[3] Asar asosan bosh qahramon ota tomonidan irlandiyalik va onasi esa fransuzlarga borib qadaluvchi oq suyak xohim bo`lgan, shaddod, qaysar, cho`rtkesar, hozirjavob va xaddan ziyoda o`ziga bino qo`ygan qiz Skarlett O`Xaraga ta`rif berish bilan boshlanadi. “Skarlet” so`zining ma`nosi ham asarda muallif tomonidan “alvon qizil,

ko`proq sariqqa moyilligi bo`lgan yorqin rang” sifatida tasvirlangan. Ismi jismiga monand bo`lgan, endigina 16 yoshni qarshilagan Skarlettning asardagi tasviriga bir nazar tashlaymiz. *“Skarlett O`Xara sohibjamol emasdi, bordi-yu erkaklar, egizak tarltonlar singari, uning jodulari asiriga aylangan bo`lsalar, bu xaqda o`ylab o`tirishlari dargumon edi. Uning chehrasida onasi-asli fransuz mahalliy aslzoda xonimning nafis yuz bichimi hamda otasi-shijoatli, serg`ayrat irlandiyalikning sog`lom qiyofasi g`aroyib tarzda uyg`unlashib ketgandi. Skarlettning keng yanoqli, xushbichim iyakli chehrasi ko`rgan ko`zni quvnatardi. Ayniqsa, ko`zlari – tim qora kipriklar o`ramidagi biroz qiyiq, och yashil, tiniq ko`zlari jozibali edi. Magnoliya gulbargidek oppoq manglayida-oh amerika Janubi ayollari shlyapachalar, to`r pardachalar ortida Jorjoyaning otash quyoshi tig`idan asrab-avaylaydigan, g`ururlanadigan bu shaffof teri!- misoli qaldirg`och qanotidek bequsur qayrilma qoshlari yonoqlari ustida go`yo charx urib uchayotganday.”*[4] Muallif tomonidan ilk sahifadayoq berilgan bosh qaxramon tasviri orqali asarda o`zgacha husnga va o`ziga hos xarakterga ega bo`lgan ayol obrazini ko`rishimiz mumkin. Keyingi o`rinlarda bu tasvirlar sekin-asta hayotning qiyinchiliklari, taqdirning turli hil zarbalari tufayli toblangan, hayot uchun kurashuvchi, metin irodali ayol tasviri bilan o`rin almashadi.

Skarlett o`zining atrofidagi “O`n ikki eman”da yashovchi barcha yigitlarni maftun qila olaman degan fikrda yurar va haqiqatdanda uni birinchi marta ko`rgan xar qaysi erkak uning jozibasiga lol qolmay iloji yo`q edi. Ammo balog`at yoshidagi bu qizning fikru-hayoli faqatgina Eshli Uilksda bo`lib, boshqalarga bepisand nazar bilan qarardi. Baxtga qarshi Skarlett kutulmaganda Eshlining o`zining amakisining qizi Melaniga unashtirilishi xabarini eshitadi va ayollardagina uchraydigan qasoskorona fikrlar bilan Melanining akasi Charliz Gamiltonga turmushga chiqishga qaror qiladi. Asarning ilk qismlarini o`qir ekan kitobxon Skarlett O`Xarani yengiltak

bir qiz sifatida tasavvur qilishi tabiiy. Lekin voqealar rivojini kuzatar ekansiz bu qizdagi ya`ni kichik bir jussada katta bir matonat, gayrat, vatanga bo`lgan muhabbat kabi ijobiy hislatlarni ko`rib hayratdan yoqa ushlaysiz. U o`zini ayol sifatida boshqa erkaklar kabi teng huquqga ega ekanligini va uning irodasini boshiga tushgan turli taqdir sinovlari yenga olmasligini ko`rsatuvchi keskin qarorlar chiqaradi va ba`zan bu qarorlari ortidan o`z yaqinlariga jumladan singlisi Syullinga nisbatan shavqatsizlik qilishiga ham to`g`ri keladi. Asarning bosh qahramonlaridan biri bo`lgan kapitan Rett Batler ayollarga past nazar bilan qarovchi, takabbur inson qiyofasida gavdalangan. Skarlett esa bu inson bilan qayta-qayta to`qnash keladi va u bilan tinimsiz nizolar kelib chiqishi natijasida kelishmovchiliklarga uchraydi. Xar safargi to`qnashuvlarida Skarlett Batlarga erkak va ayollarning teng huquqli ekanligi, erkaklarning yordamisiz ham o`zi nimagadir erisha olishini isbotlashga harakat qiladi lekin doimiy nizolar ostida yashiringan chin sevgisini kech tushunib yetadi. Va asar so`ngida Skarlettning shunday so`zlari mavjud *“Men bu haqida xozir o`ylamayman, bu haqida ertaga o`ylab ko`raman.”*[5] Shu xotima sifatida berilgan qahramon nutqi orqali ham muallif ayollarning hayotga bo`lgan qiziqishi, doimo yaxshilik sari qadam tashlashi va bunda erkaklar bilan bir safda bo`lishga intilishini ko`rsatib bergan deyish mumkin.

Yuqoridagi kabi erkak va ayollar munosabatlari ya`ni gender tengligi masalalari borasidagi qarashlarni o`zbek adabiyotining bir qator asarlarida jumladan Abdulla Qahhorning “Sinchalak” qissasida ham uchratishimiz mumkin. Ushbu asar 1958 yilda yozilgan bo`lib, Konstantin Simonov tomonidan rus tiliga, Rosen Trinkov tomonidan bolgar tiliga tarjima qilingan.[6] Qissa XX asrning ikkinchi yarmida adabiyotda esgan bahor epkinidan darak berardi. Darvoqe asarning o`zi ham ko`klam tasviri bilan boshlanadi. Aslida o`shanda ijtimoiy hayotda ham ba`zi bir o`zgarishlar boshlanayotgan davr edi. [7] Kitobxonga ma`lumki, sinchalak bu

kichik, mittigina tunda oyog`ini ko`kka ko`tarib xuddi dunyoni ko`tarib qoladigandek uhlaydigan tinib-tinchimas qush. Muallif o`zining bu asarini bejizga “Sinchalak” deb atamagan. Asarda Saida ismli kichkina, nimjongina bir qiz va uning osmonni ko`targudek gayrati va shijoati, sobiq sovet hukumati davridagi kolxozlashtirish jarayonlaridagi faol ishtiroki va bu yo`lda unga uchraydigan suniy to`siqlarni qay darajada ayollarga xos matonat bilan yengib o`tganligi borasida hikoya qilinadi. Adabiyotshunos Ozod Sharafiddinov o`zining “Ma`naviyat kamolot yo`llarida” nomli kitobida shunday fikrlar bergan. “Abdulla Qahhor Saida obrazida hozirgi ilg`or o`zbek ayollarining xarakterli, tipik sifatlarini umumlashtiradi.” [8] Asarni qo`lga olib oqir ekansiz muallif tomonidan berilgan Saida obrazi xaqiqatdanda yuqorida berilgan fikrlarga isbot bo`lishiga yana bir bora amin bo`lasiz. *“Nosirov qabulxonada hurmat yuzasidan o`rnidan turgan yordamchi-yigirma ikki yoshlardagi baland bo`yli, hushqomat, juda nozik qizga salom berib, kabinetiga kirib ketdi.” “Saida, arzon chit bo`lsa ham ihcham tikilgan kuylagining orqa etagini g`ijim qilmaslikka tirishib, ehtiyot bilan kursiga o`tirdi, yo`l-yo`l baxmal jiletkasining biqin cho`ntagidan yarmi chiqib turgan kichkinagina bloknotini olib stolga qo`ydi, ingichka qalamining ketini iyangiga niqtab, Nosirovga savol nazari bilan qaradi.”*[9] Tasviriy ifodalar orqali asarning sinchalagi sodda, hamisha shijoat bilan topshiriqni bajarishga tayyor bo`lgan nozik nihol qizni tasavvur qilishimiz mumkin. Abdulla Qaxxor ijodkor sifatida bu asarda ayollar obrazi orqali hayot bilan kurashuvchi tinib-tinchimas qiz obrazi atrofidagi voqeliklarni berish mobaynida gender tengligi mavzusini ham chetlab o`tmagan. Masalan asarda salbiy obraz sifatida gavdalangan “Bo`ston ” kolxozining raisi Arslonbek Qalandarovning oxirgi qilgan xatti harakatlari haqida Nosirov o`zining sekretari Saidagi shularni ma`lumot sifatida gapirib beradi. *“Millisioner nachalnigiga raport bergan ekan. Qalandarov toza yalinibdi: “Jon uka, nachalnikka ro`para qilib erkak qaddimni bukma, qancha shtraf olsang ol”, deb cho`ntagini tutibdi. Avtoinspeksiyaning*

nachalnigi ayol kishi ekan...” Ko`rinib turibdiki, asarda ayol kishiga bosh egib borish erkaklar uchun or-nomus darajasidagi butun boshli qaddini bukilib qolishi bilan tenglashtiriladi va bu holatga tushmaslik uchun ular xar qancha to`lashga ham tayyor ekanliklarini shu birgina jumla orqali anglash mumkin. Chunki sobiq sovet hukumati davrida o`zbek ayollari kamdan-kam o`rinlarda yuqori martabali lavozimlarga qo`yilganlar. Bu asosan o`zbek urf -odatlari bo`yicha erkaklar bir pog`ona yuqori turishlari kerak degan g`oyaviy qarashlar ostida shakllangan hayot tarzimiz natijasi edi. Asar syujetining ketma ketligida shu kabi gender tengligi masalalarini yorituvchi o`rinlar talaygina bo`lib, yana bir misolga murojaat qilamiz. “Soyada o`sgan” rais Qalandarov oxirgi ikki yil ichida kolxoz partiya tashkilotining sekretarlarini sig`dirmay besh marta almashishlariga sabab bo`lgani va bosh qahramon Saidani ushbu kolxozga yuqoridagi lavozimga tayinlanganida qiz qo`rquv va hayratda *“Meni Qalandarov pisand qilarmidi?” deb boshini quyi solgan xolda eshitilar-eshtilmas* : *“Ayol boshim bilan...”* deya jim qoladi. Asarning shu qismidan ko`rish mumkinki ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy jihatdan teng huquqli bo`lishiga qaramay ayollar erkaklardan, ayniqsa Qalandarov kabi qo`li uzun qayerga cho`rsa shu yerga yetadigan rahbarlardan doimo hayiqib kelganlar. Ayni paytda tanganing yana bir boshqa tomoni borligidek Nosirov kabi asarning ijobiy qahramonlari voqealar rivojini oshirib boradi. Chunki Saidaning tushkinlik bilan aytgan yuqoridagi gaplariga rayon partiya komitetining sekretari Tohirjon Nosirov taassuf bilan shunday deydi: *“Mana bu gapni men sizdan kutmagan edim. “Ayol boshim” deganingiz mungliman, mushtiparman deganingizmi? Nahot shundoq bo`lsa!... Ayollarga “ayol” deb, odam bolasini ojiz notavon deb qarash, qalin, kundoshlik, “nazr” singari bid`atlar ayollar sha`niga demak, insoniyat sha`niga xaqorat deb turganimizda, siz o`zingizni “ayol” deb qarasangiz... dodimizni kimga aytamiz! Qadimgi zamonda ayollar o`ziga o`zi ayol, ya`ni mungli, mushtipar deb qarashi tabiiy bo`lgan, chunki uning ko`z yoshidan boshqa*

orqa tayanchi yo`q edi. Sizning orqangizda Sovet hukumati, butun bir sistema turibdi! Nahot shuni sezmasangiz! Buni sezmasangiz jamiyatdagina emas, shaxsiy hayotingizda ham dadil qadam tashlay olmaysiz. Zamonamiz dadil qadamlar zamonasi-ku, qizim!” Otalarcha pandu-nasihat ohangida berilgan yuqoridagi fikrlardan shuni anglash mumkinki, o`z davrining ijtimoiy-siyosiy hayotini asarlarida aks ettirishga harakat qilgan muallif ayol va erkak tengligi ya`ni gender tengligi masalalari asar voqealari sodir bo`lgan o`sha sovet hukumati davrida ham e`tibordan chetda bo`lmagan. Ijodkor o`zi erkak jins vakili bo`lishiga qaramay qissada ayol obrazini va u orqali gender tengligi mavzusini qaysidir darajada ochib bera olgan.

XULOSALAR.

Xulosa o`rnida shuni ta`kidlash lozimki, kelib chiqishi jihatdan butunlay boshqa-boshqa tillar oilasiga mansub ingliz va o`zbek tillarida yozilgan badiiy asarlarda yozuvchilar tomonidan ayollar obrazlarining talqin qilinishi hamda ularning boshidan kechirgan kechinmalarini ifodalash orqali gender tengligi masalalariga qay yo`sinda yondashilganligini tahlil qilish va o`rganish adabiy jarayonda to`xtovsiz davom etib kelmoqda. Mualliflar qaysi zamonda va makonda yashab ijod qilishlaridan qat`iy nazar hamma vaqt ayol obraziga murojaat qilganlar va ayol va erkak munosabatlaridagi tenglik mutanosibli-gender masalalari davrlar osha asarlarda yashab qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Kostikova I.V I dr.. Vvedeniye v genderniye issledovaniya, Seriya "Klassicheskiy universitetskiy uchebnik",M.: Aspekt Press, 2005. 8-10 bet.
2. Krijnen, Tonny; van Bauwel, Sofie. Gender And Media: Representing, Producing, Consuming. New York.
3. "Obituary: Miss Mitchell, 49, Dead of Injuries". The New York Times. August 17, 1949. Retrieved May 14, 2011
4. Margaret Mitchel. Shamollarda qolgan hislarim. Rohila Axtamova tarjimasi. Pravo-Press nashriyoti. Toshkent 2020
5. Margaret Mitchell. Gone with the Wind. New York. Warner books edition. August 1993.
6. Sharipov Husniddin „Taqdir“. Ziyouz .2014 yil 17-aprel
7. Yo`ldosh Solijonov. "Sinchalak" parvozidan kutilgan niyat. "O`zbekiston adabiyoti va san`ati" gazetasi. 2007 yil. 34 son
8. Ozod Sharafiddinov. "Ma`naviy kamolot yo`llarida" Toshkent. 2001 yil
9. Abdulla Qaxxor. Sinchalak. www.ziyouz.com.kutubxonasi